



UMUMTA'LIM MAKTABLARDA INKLYUZIV TA'LIM
SHAKLIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI NUTQIY
FAOLIYATGA O'RGATISH

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Berdikobilova Kamola O'ktamovna

+998879429094

Kberdikobilova@gmail.com

Ilmiy raxbar :Toshkent amaliy fanlar universiteti

O'qituvchisi: phd Saparova Umida Baxromovna

+998903155057

umidasaparova7@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan bolalarni respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga qamrab olish va inklyuziv ta'limning o'rni haqida so'z yuritiladi.*

KALIT SO'ZLAR. *Inklyuziv, PQ-4860, intellekt, alaliya, dislaliya, korreksion sinflar.*

KIRISH. Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyat-lar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Davlatimiz tomonidan bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar va alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga yo'naltirish, ular uchun shart sharoitlar yaratish hamda ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor kuchaytirilgan. Buni biz Prezidentimiz hamda davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon hamda qarorlarda ko'rishimiz mumkin.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l



qo‘ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta‘lim-tarbiya olishi ko‘zda tutilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается вопрос включения детей с особыми образовательными потребностями в общеобразовательные средние школы нашей республики и роль инклюзивного образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Инклюзивное образование, ПК-4860, интеллект, алалия, дислалия, коррекционные классы.

ВВЕДЕНИЕ. Организация инклюзивного образования осуществляется на основе принципов гуманизма, универсальных ценностей, толерантности и прозрачности. Сегодня наше государство уделяет повышенное внимание вовлечению людей с инвалидностью и детей с особыми образовательными потребностями в социальную жизнь, созданию для них условий и их воспитанию. Это видно в указах и постановлениях, изданных нашим Президентом и нашим государством. Предполагается, что дети с особыми образовательными потребностями будут получать образование в общеобразовательных школах вместе со своими здоровыми сверстниками, в дружественной среде, с гарантированными равными правами, свободными от различных форм насилия и дискриминации, и одновременно получать образование и воспитание в одном классе в одинаковых условиях.

ANNOTATION. This article discusses the inclusion of children with special educational needs in general secondary schools in our republic and the role of inclusive education.

KEYWORDS. Inclusive, PQ-4860, intelligence, alalia, dyslalia, correctional classes.

INTRODUCTION. The organization of inclusive education is carried out based on the principles of humanity, universal values, tolerance, and transparency.

Today, our state has increased its focus on directing people with disabilities and children with special educational needs into social life, creating conditions for them, and educating them. We can see this in the decrees and resolutions issued by our President and our state.



It is envisaged that children with special educational needs will receive education in general education schools together with their healthy peers, in a friendly environment, guaranteed equal rights, free from various forms of violence and discrimination, and at the same time receive education and upbringing in the same classroom under the same conditions.

ASOSIY QISM. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorining 1-ilovasi “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi hujjatlarga muvofiq umumta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan inklyuziv hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda faoliyat olib boradigan maxsus o‘qituvchi o‘quvchilarga individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam ko‘rsatish, o‘quvchilar bilan individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarida, barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarni amalga oshirishi ta‘kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida» 2023 yil 1 iyundagi PF 82-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 25 yanvardagi 46-son qarorida inklyuziv ta‘lim uchun Psixologik-Tibbiy-Pedagogik-Komissiyalar to‘g‘risida umumiy qoidalar berilgan.

Inklyuziv so‘zi - (inklyuziya – inglizcha [inclusion] - uyg‘unlashish, qamrab olish) degan ma‘noni bildiradi. Hamkorlikdagi ta‘lim tizimi bo‘lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta‘lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta‘limning maqsadi: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni



jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta‘lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladi.

- o‘quvchilarning ta‘limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- ta‘lim muassasasida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va

o‘smirlarning ta‘lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish;

- ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta‘lim dasturlari va korreksion

ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o‘quvchilarning ta‘limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan

va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish;

- ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;

- jamiyatda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi va o‘smirlarga

nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish kabilardir.

O‘quvchi qanday imkoniyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtoj bo‘ladi. Uni alohidalash yoki alohida nom bilan “Anomal bolalar”, (ko‘r bolalar), (kar bolalar) va hakozi tushunchalar bilan ajratib ko‘rsatish insonparvarlik nuqtayi nazariga to‘g‘ri kelmaydi. Ushbu tushunchalar alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning huquqlarini kamsitish bilan bir qatorda ota-onalarga ham salbiy ta‘sir etadi.

Inklyuziv ta‘lim - alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda umumta‘lim muassasalarida barcha uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlagan holda beriladigan ta‘lim tizimidir. Inklyuziv ta‘lim umumta‘lim maktablarida sinf sifatida tashkil etiladi, sog‘lom o‘quvchilar bilan bir qatorda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar birga bir sinfda ta‘lim-tarbiya oladilar va “Inklyuziv ta‘lim sinfi” deb ataladi.



Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarda. nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir". K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildiradi.

A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish-bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi.

Yurtimizda inklyuziv ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarni nutqini oshirishda umumta'lim maktablarida har kunlik darslardan tashqari maxsus pedagoglarimiz ham o'z faoliyatlarini yuritishmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'zi rahbarlik qilayotgan sinfdagi har bir alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan bolaga ma'sul hisoblanadi. Inklyuziv ta'limga asoslanib tahsil oladigan o'quvchilarni o'z tengdoshlari bilan ruhan differensatsiyalamagan holatda o'z faoliyatini yuritishi kerak.

Inklyuziv ta'limda nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Bunga moslashtirilgan o'quv dasturlari, interaktiv metodlar (o'yin, muloqot), nutq nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan logopedik yordam, ijobiy psixologik muhit va ko'p funksiyali ta'lim muhiti kiradi.



Inklyuziv ta'limda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlarni boshlang'ich ta'limning sinf rahbari o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasi va alohida ehtiyojlaridan kelib chiqib, individual ta'lim rejaları (IEP)ni ishlab chiqishi;

Logopedik va psixologik qo'llab-quvvatlash: Nutq nuqsonlari (talaffuz, lug'at boyligi) bilan ishlash uchun logoped, defektolog va psixolog hamkorligini ta'minlashi;

Interaktiv va o'yinli metodlar: Muloqotni rivojlantirishga qaratilgan rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va nutqiy vaziyatlarni tashkil etishi;

Moslashtirilgan muhit: Sinf xonasida vizual ko'rgazmali qurollar (rasmlar, kartochkalar)dan foydalanish va ijtimoiy muloqot uchun qulay sharoit yaratishi dolzarb hisoblanadi.

Maktab psixologi, maxsus pedagog va inklyuziv sinf rahbarining hamkorlikka asoslangan metodlari va sinf ichidagi kommunikativ muhit vositalari alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni nutqini yanada rivojlantiradi. Nutqiy faoliyat ko'nikmalari ko'pincha "o'qituvchi—o'quvchi" liniyasida emas, balki "o'quvchi—o'quvchi" hamkorligida faolroq rivojlanadi. "Juftlikda o'qish", "o'zaro savol-javob", "kichik guruhda muhokama", "fikr almashish aylanasi" kabi strategiyalar maxsus ehtiyojli o'quvchini muloqotga tabiiy jalb etadi. Natijada inklyuziv ta'limning samaradorligi oshadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish vositalari bir-birini to'ldiruvchi kompleks tizim bo'lib, u didaktik tayanchlar, vizual va grafikli tashkil etuvchi metodlar, o'yin, fonetik-artikulyatsion mashqlar, AKT va assistiv texnologiyalar, hamkorlik metodlari, baholash hamda oila bilan pedagogik hamkorlikni qamrab oladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida bu vositalarning eng muhim mezonini — o'quvchini muloqotdan chetlatmasdan, aksincha sinfning umumiy kommunikativ hayotiga olib kirishidir. Shunda nutqiy rivojlanish "alohida" jarayon bo'lib qolmay, ta'limning barcha bosqichlariga singdirilgan, barqaror va o'lchanadigan pedagogik natijaga aylanadi. Inklyuziv sinfda nutqiy kompetensiya psixologik xavfsiz muhit,



moslashtirilgan mazmun, tizimli diagnostika, mutaxassislar hamkorligi va maqsadli integratsiyalangan innovatsion texnologiyalar uyg'unligida samarali shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.S.N.Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim"-2024.O'quv qo'llanma.
- 2.Inklyuziv ta'limni barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish.Metodik tavsiya-2021.
- 3."Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari :muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy –amaliy konferensiya materiallari to'plami."Lesson-press"-2021.